- eksportyor firmalarga yoki xorijiy sheriklarga past foizli kreditlar berish;
- reklama xarajatlarini davlat xisobidan koplash, bozor konyukturasi xakida tekin axborot etkazib berish;
- firmalarga ishlabchikarish xajmidagi eksport ulushiga muvofiq solik imtiyozlarini berish;
- bevosita subsidiyalash kiradi.

Yeksport subsidiyalarining berilishi milliy ishlab chikaruvchilarining tashki bozorda rakobatbardoshligini oshiradi. Ammo importyor davlatlar tomonidan kiritiladigan kompensasion import bojlari bu yutukni yo'kka chikarishi mumkin. Okibatda eksportyor davlat byudjeti yo'kotishga uchraydi, importyor davlat byudjeti esa ko'shimcha daromad ko'radi. Bu tadbir dempingga karshi kurash ko'rinishlaridan biridir.

**Dempinga karshi karatilgan bojlar** jaxon amaliyotida keng ko'llanilib, o'zida ko'shimcha import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda, jaxon narxlaridan yoki import kilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha, eksport kilinayotgan maxsulotlarga o'rnatiladi. Bu bojlarni belgilash xakidagi karorni xalkaro sud maxalliy ishlab chikaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so'ng chikaradi xamda uning mikdorini va to'lash tartibini belgilaydi. Masalan, dempingga karshi bojlar o'z valyuta resurslarini to'ldirish maksadida jaxon bozoriga xom ashyo resurslarini eksport kilishni ko'paytirgan sobik ittifokdosh respublikalarga nisbatan faol ko'llanilmokda.

Yeksportga tariflar yoki eksport bojlari kiritilishining okibati import bojlari kiritilishi okibatining aynan aksidir. eksport bojlari kiritishishi sharoitida maxsulotlar ichki baxosi ularning tashki baxosidan pasayadi. Bunday vaziyatlarda ichki iste'mol o'sadi, ishlab chikarish va eksport kamayadi. eksportga bojlarni joriy kilish natijasida milliy ishlab chikaruvchilarda yo'kotishga duch bo'ladilar. Tankibozordagi baxolarga nisbatan ichki baxoning kamayishidan iste'molchilar yutukka erishsa, davlat esa daromadga ega bo'ladi.

Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash eksport kvotalarining bir turi bo'lib, xorij mamlakatlarining ayrim mamlakatlarga "ixtiyoriy" eksport mikdorlarini cheklashdan iborat.

Bu erda «ixtiyoriy so'zi» shartli xarakterga ega. Chunki, eksport kilayotgan mamlakat savdo siyosatida o'z xamkorlari tomonidan birorta noxushlikka duch kelmasligi uchun eksport mikdorini cheklaydi.

Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash ikki xil xususiyatga ega:

1. Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash milliy iste'molchilar uchun tarif va kvotalarni belgilashga nisbatan ancha sezilarsiz. Shuning uchun iste'molchilar ularni e'tiborsiz kabul kiladilar va xukumatga norozilik bildirmaydilar.

2. Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida xorij iste'molchilari ular sotib olayotgan eksport maxsulotiga yukorirok narx belgilashlari mumkin.

Shunday kilib, xorijliklar ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida eksportyor ko'rgan yo'kotishlarni narxlarni oshirish xisobiga koplashadi.

Savdo siyosatini amalga oshirishning ko'rib o'tilgan usullarining xar biri ijobiy jixatlari bilan birga salbiy okibatlariga xam ega. Mamlakat iktisodiyotining rakobatbardoshligi darajasi kuchayib borgani sari tashki savdo liberallashtirib boriladi. Mamlakatning xalkaro savdo tashkilotlariga a'zo bo'lishi bu jarayonining konuniy natijalaridan biridir. Tashki savdoni erkinlashtirilishi iktisodiyotda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga olib keladi.

### **Kiskachaxulosalar**

Savdosiyosati – byudjetsoliksiyosatining, tashkisavdoxajmlarinisoliklar, subsidiyalar, valyutanazorativaimportyokieksportnito'gridan-to'gricheklashlarorkalitartibgasolishnio'zichigaolgan, nisbatanmustakilyo'nalishdir.

Tashkisavdonitartibgasolishdaengko'pko'llaniladiganusulimportgatarifbelgilashbo'lib, buningnatijasidaichkibaxolarningo'sishikuzatiladi.

Importgatariflarnijoriykilishdaniste'molchilarko'rganzararishlabchikaruvchilardavlatko'rganfo ydadankattabo'ladi. Importga tariflarni joriy kilishdan ko'riladigan foyda va zararlar nisbati munozarali masaladir. Ammoimporttariflariichkiishlabchikaruvchilarniximoyakilish, to'lovalansinitartibgasolishmaksadlaridakengko'llaniladi.

Ichkiishlabchikaruvchilarniximoyakilishmaksadidaishlabchikaruvchilargasubsidiyalarberis husulixamko'llaniladi.

Yeksportgasubsidiyalarvalyutatushuminiko'paytirish, ortikchamaxsulotdankutulish, tashkibozorniegallashuchunko'llaniladi.

eksportsubsiyalariniko'llashdempinggaolibkelmasligikerak,  
chunkidempingxalkarosavdokoidalarigako'rata'kiklangan.

Tashkiiktisodiyfaoliyatnilisenziyalashvakvotalaro'rnatishxalkarosavdonitartibgasolishning  
bevositausullaridir.

Xalkarosavdosiyosativositalarivatadbirlarimamlakatiktisodiyotixolatidankelibchikibechilayotgan  
vazifalargamuvofiktanlanadi.

### **Nazoratvamu xokamauchunsavollar**

1. Savdosiyosatiningmoxiyativamaksadlarinitushuntiribbering.
2. Importgatariflarningkiritilishidaniktisodiyntijalarigaizoxbering.
3. Importniyoklovchivaungakarshibo'lganfikrlarnitakkoslabbering. fikrlargaizoxbering.
4. Ishlab chikaruvchilarga subsidiyalarning importga tariflardan afzalligi va kamchiliklari  
nimada ?
5. Import kvotalarini kiritilishining iqtisodiy okibatlarini nimalarda ko'rinadi?
6. Lisenziyalarnitaksimllashusullarigakiyosiytavsifbering.
7. Yeksportni subsidiyalash usullari moxiyatini tushuntirib bering. tushuntirib bering.
8. eksportniixtiyoriycheklashkachonko'llaniladi, vauningokibatlarikanday?
9. Savdoni cheklash tadbirlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siriga izox bering.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Agapova T.A., Seregina S.F. Makroyekonomika: Uchebnik.-7-yeizd. pererab. idop.-M.: Izdatelstvo  
"Deloiservis", 2005. 314- 329 s.s.
2. Axmedov D.K., Ishmuxamedov A.Ye., Jumayev K., Djumayev Z.A. «Makroiqtisodiyot» T.:  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti 2004, 166-181 b.b.
3. Ivashkovkiy S.N. Makroyekonomika: Uchebnik.-2-yeizd., dop.- M.: Delo, 2002, 282-310 s.s.
5. Mejdunarodniye ekonomicheskiye otnosheniya.: Uchebnik / Podredaksiyey A.I. evdokimova.,  
M., "Prospekt", 2004., 201-231 s.s.

### **Mavzu. TO'LOV BALANSI**

#### **Reja :**

1. to'lov balansi tushunchasi va uning tuzilishi.
2. Joriy operatsiyalar hisobi balansi.
3. Kapital xarakati hisobi balansi.
4. To'lov balansining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqliklar
5. To'lov balansi taxlili.
6. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalari va usullari.

#### **To'lov balansi tushunchasi va uning tuzilishi.**

To'lov balansi  
ma'lum davr mobaynida mamlakat rezidentlarivata shki dunyo o'rtasida bo'ladigan bitimlar statistikka  
ydkilingan xujjatdir. Umamlakatning iqtisodiy alokalarini anik-lo'nda ifodalab pul-kredit, valyuta,  
byudjet-solik,  
xalkarosavdosiyosatining hamdada davlat karzini boshkarish yo'nalishlarini tanlash uchun indikatorvazi  
fasini bajaradi.

Mamlakatning ma'lum vaqtdagi barcha xalkaro iqtisodiy faoliyati, shujumladan, tashkisavdo,  
kapital va ishchikuchimigrasiyasi ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Xar kandy tashki iqtisodiy  
bitim valyuta ayirboshlash va valyuta operatsiyalari orkali amalga oshiriladi. Demak,  
mamlakatning jaxon bozoridagi faoliyati natijalari pirovardida xorijiy valyuta tushumlari va  
xarajatlarida ifodalanadi. Shuning uchun ham to'lov balansini bir tomondan, chetdan keladigan  
barcha tushumlar, ikkinchi tomondan esa, chetga chikariladigan barcha to'lovlar ko'rsatilgan

xujjatdir deb karash mumkin. Tushum fakat eksport yordamida ta'minlanishi mumkin. Aksincha, xorijiy tovarlarni va xizmatlarni sotib olish (import) uchun to'lovlar va xorijiy valyuta xarajatlari bilan boglik bo'ladi. Bunda tovar deganda ayirboshlanadigan xar kanday narsa tushuniladi, ya'ni, u moddiy ne'mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital va valyuta bo'lishi mumkin.

## 10-jadval

### Mamlakat to'lov balansining taxminiy ko'rinishi (rakamlarshartli)

Moddalarnomi	Kredit (+) yoki eksportdantushumlar	Debet (-) yoki import uchun xarajatlar	Sof kredit yoki sof debit
Joriy operatsiyalar hisobi			
Tovarlar	+185	-260	-75
Tashkisavdo balansining koldigi			-75
Xizmatlar	+85	-97	-12
Investitsiyalar dandaromadlar (foizlar va dividendlar)	+28	-20	+8
Transfert kurinishidagi pulo'tkazmalari	+10	-18	-8
Joriy operatsiyalar buyicha balansning koldigi			-87
Kapital xarakatining hisobi			
Investitsiyalar va boshka o'rtavauzok muddatlik kapital	+150	-87	+63
Kapital xarakati balansining koldigi			+63
Joriy operatsiyalar va kapital xarakati buyicha balansning koldigi			-24
Rasmiy xaxiralar (oltin, XFV dagizaxiralar)	+24		+24

To'lov balansida barcha iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruxga bo'linadi: joriy operatsiyalar va kapital xarakati bilan boglik operatsiyalar (10-jadval). Shunga ko'ra to'lov balansini strukturasi ham ikki kismdan iborat:

1. Joriy operatsiyalar hisobi;
2. Kapital xarakati hisobi.

Joriy operatsiyalar hisobida maxsulotlar va xizmatlar eksporti «plyus», import esa «minus» ishoralari bilan belgilanadi. Ya'ni, joriy operatsiyalar hisobida ichki maxsulotlar eksporti kredit, aksincha mamlakatga maxsulotlar olib kelish - import esa debet sifatida ko'rsatiladi. Chunki, maxsulotlar eksporti xorijiy valyuta ishlab topib, mamlakat valyuta zaxirasini boyisa, import esa mamlakatdan valyuta chikib ketishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida mamlakat valyuta zaxirasini kamaytiradi.

#### Joriy operatsiyalar hisobi balansini.

Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularning farki tashki savdo balansining koldigi deb yuritiladi. Misolimizda bu balans salbiydir, ya'ni, mamlakat tovarlarni chetga olib chikishdan ko'ra ko'prok olib keladi (-75).

Joriy operatsiyalarning keyingi moddasi – bu, xizmatlar (transport, sugurta, sayyoxlik xizmatlari va boshkalar) eksporti va importidir. Misolimizda tovarlar bilan bo'lgan operatsiyalardagi kabi xizmatlar bilan bo'lgan operatsiyalarda ham mamlakat xorijiy xizmatlarni ko'prok oladi ya'ni, masalan, mamlakatda yashovchilar xorijga chetdan mamlakatga keladigan sayyoxlarga nisbatan ko'prok boradilar, shuningdek, mamlakatdagi tadbirkorlarga xorijiy transport va sugurta xizmatlarini ko'rsatish xajmi xorijiy tadbirkorlarga mamlakatda transport va sugurta kompaniyalari ko'rsatadigan xizmatlar xajmiga karaganda yukorirok va x.k. Bu operatsiyalar bo'yicha ham balans salbiy koldikka ega (-12).

Investisiyalardan daromadlar, foizlar va dividendlar bo'yicha to'lovlarni o'z ichiga oladi. Agar xorijga ko'yilgan milliy kapital uchun chet to'lovlari bo'yicha tushumlar mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy kapital uchun to'lanadigan to'lovlar miqdoridan ko'p bo'lsa, unda sof daromad musbat bo'ladi (+8).

Transfert ko'rinishida pul o'tkazishlar shu mamlakatlarning xorijda yashayotgan fukarolariga to'lanadigan nafakalarni, muxojirlarning xorijdagi o'z karindoshlariga pul o'tkazmalari, turli ko'rinishdagi xukumat yordamlarini o'z ichiga oladi. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, xorijga jo'natilayotgan pul o'tkazishlar miqdori olinayotganiga nisbatan yukori, ya'ni, operatsiyalar mamlakatdagi xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytiradi (-8).

Joriy hisoblar bo'yicha barcha operatsiyalar yigindisi joriy operatsiyalar balansini tashkil etadi. Bizning misolda u salbiy (-87). Bu esa mamlakatda import operatsiyalari natijasida xorijiy valyutaga bo'lgan talab uning eksport operatsiyalari ta'minlaydigan taklifdan ortik bo'lishini anglatadi. Boshkacha aytganda, ushbu xolda mamlakat to'lov balansi joriy operatsiyalar bo'yicha kamomadga ega.

Makroiqtisodiy modellarda joriy operatsiyalar balansi koldigi quyidagicha beriladi:

$X - M = X_n = Y - (S + I + G)$ ; bu erda: X - eksport; M - import;  $X_n$  - sof eksport; S + I + G - YaIMning bir qismi (absorbsiya)

Joriy operatsiyalar balansida kamomad bo'lgan sharoitda, mamlakatning eksportdan olgan daromadlari importga qilgan xarajatlaridan kam bo'ladi va uni tashkaridan karz olish hisobiga yoki mavjud aktivlarning bir qismini xorijiy investorlarga sotish orqali koplashi mumkin. Bu operatsiyalar sof xorijiy aktivlarning kamayishiga olib keladi.

Sof xorijiy aktivlar (NFA) – bu, milliy rezidentlar tomonidan egallab turilgan xorij aktivlari va xorijliklar egalik qilgan mamlakat aktivlari o'rtasidagi farkni bildiradi.

Joriy operatsiyalar balansida takchilik bo'lmagan sharoitda esa mamlakat xorijiy valyutalarni sarf qilishga nisbatan ko'prok olib keladi.

Misolimizga aksincha mamlakat joriy operatsiyalar bo'yicha balansi ijobiy koldikka ega bo'ladi. Bunda mamlakatda chet elda ko'chmas mulkni sotib olish yoki boshka mamlakatlarga karzga berishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan ortikcha xorijiy valyuta yuzaga keladi.

### **Kapital xarakati hisobi balansi.**

Investisiyalash va kreditlash bilan bogliq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni, kapitallar xarakati hisobida aks ettiriladi.

Mamlakatda ma'lum bir vaktida moddiy va moliyaviy aktivlarini sotib olish va sotish bilan bogliq operatsiyalariga kapital xarakati hisobi deyiladi. Kapital xarakati hisobi balansida korxonalar, er, uy-joylar, kimmatbaxo kogoslar, aksiyalar, xazina majburiyatlari va boshka aktivlarni olish-sotish bilan bogliq kapitallar okimi aks ettiriladi. Bu aktivlar sotilsa yoki eksport kilinsa, xorijiy valyuta mamlakatga kiritiladi, ya'ni valyuta tushumi ko'payadi (+150). Birok kapitalni olib kelish bilan bir vaktida uni olib chikish bilan bogliq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Bunda mamlakatning tadbirkorlari xorijdan aksiyalar sotib oladi, xorijliklarga kreditlar beradi va shu asosda ular xorijiy valyuta zaxiralarini sarflaydi. Bu operatsiyalar debet ko'rinishida aks ettiriladi (-87). Kapital xarakati balansining koldigi – bu, uni olib kelish va olib chikish o'rtasidagi farkdir (+63).

Kapital xarajatlari hisobida aktivlar bo'yicha barcha xalkaro operatsiyalar ko'rsatiladi.

**Kapital xarakati balansi =Aktivlarni sotishdan tushadigan barcha tushumlar – Xorijiy aktivlarni sotib olishga kilingan xarajatlar.**

Xorijga aktivlarni sotish valyuta zaxirasini ko'paytirsa, sotib olish esa uni kamaytiradi. Shuning uchun kapital xarakati balansi barcha operatsiyalardan keladigan sof valyuta tushumlarini ko'rsatadi. Kapital xarakati hisobining ijobiy koldigi mamlakatda kapital ko'payishini bildirsa, uning salbiy koldigi mamlakatda kapital kamayishini bildiradi.

Avval aytib o'tilganidek, joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital xarakati balansi o'zaro chambarchas bogliq. Bizning misolda birinchisining takchilligi (-87) katta qismi (+63) kapitalning sof okib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi va aksincha, agar to'lov balansi joriy

operatsiyalar bo'yicha musbat koldikka ega bo'lsa, kapital xarakati hisobi balans bo'yicha manfiy koldikka yo'l ko'yilgan bo'ladi.

Shunday kilib, balansning bu ikki bo'limi bir-biri bilan tenglashib boradi.

**to'lov balans koldigi = Joriy operatsiyalar + Kapital xarakati balans**

Birok, amalda to'lov balansining bu kismida ham ko'pincha kamomad yoki ortikchalik yuzaga keladi. Barcha mamlakatlarning Markaziy banklari rasmiy zaxiralar deb ataluvchi xorijiy valyuta zaxiralari ega bo'lib, bu zaxiralar joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital xarakati bo'yicha balans nomutanosibligini bartaraf etishda ko'llaniladi. Bizning misolda bu nomutanosiblik yoki koldik (-24)ni tashkil etadi va rasmiy zaxiralardan tushumlar hisobiga tartibga solinadi.

Rasmiy zaxiralarning kiskarishi (+) kamomad mikdorini ifodalaydi, rasmiy zaxiralarning o'sishi (-) esa to'lov balansining musbat koldigi mikdorini ko'rsatadi. Natijada uning barcha uch bo'limi summasi «0»ni tashkil etishi lozim. Bu esa xorijiy valyuta taklifini va unga mamlakatda bo'lgan talab tengligini bildiradi.

### To'lov balansining tarkibiy kislari o'rtasidagi bog'likliklar

Joriy operatsiyalar hisobi bilan kapital xarakati hisobining o'zaro alokalarini umumlashtirsak, uning makroiqtisodiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$Y = C + I + G + X_n;$$

$$Y - C - G = C + I + G + X_n - (C + G);$$

$$S_n = I + X_n$$

$(I - S) + X_n = 0$  ( egiluvchan valyuta kursi rejimida markaziy bank aralashmagan sharoitda), bu erda:

$S_n$  – milliy jamgari;

$(I - S)$  – mikdori ichki investisiyalarning ichki jamgarmalardan ortikchaligini ko'rsatadi va kapital xarakati hisobi koldigini bildiradi.

Asosiy makroiqtisodiy ayniyatga ko'ra joriy operatsiyalar va kapital xarakati hisoblari bir-biriga tenglashadi:

$$X - M = X_n = -(I - S) = S - I \text{ ichki balans}$$

Bu shuni bildiradiki, to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'yicha kamomadi kapitalning sof okib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi.

$$\left. \begin{aligned} X_n < 0 &\Leftrightarrow X - M < 0 \Leftrightarrow X < M; \\ I - S > 0 &\Leftrightarrow I > S \Leftrightarrow \text{xorijdan kapital kiritilishi.} \end{aligned} \right\}$$

Agarda investisiyalar (I) milliy jamgarmalardan ko'p bo'lsa ( $I > S$ ), ortikcha investisiyalar xorijdan olinadigan karz hisobiga moliyalashtirilishi lozim. Bu karzlar mamlakatga tovar va xizmatlarni eksport kilishga nisbatan ko'prok import kilinishini taminlaydi ( $M > X$ ). Ya'ni, sof eksport manfiy koldikka ( $X_n < 0$ ) ega bo'ladi. Mamlakat xalkaro jarayonga karzdor bo'lib katnashadi.

Joriy operatsiyalar musbat koldikka ega bo'lganda, ortikcha mablag'lardan xorijga investisiya kilishda yoki xorijdan ko'chmas mulk sotib olishda foydalaniladi.

$$\left. \begin{aligned} X_n > 0 &\Leftrightarrow X - M > 0 \Leftrightarrow X > M; \\ I - S < 0 &\Leftrightarrow I < S \Leftrightarrow \text{xorijga kapital chikarilishi} \end{aligned} \right\}$$

Davlatlar rasmiy zaxiralar va karzlar hisobiga koplash kobiliyatiga ega bo'lmagan to'lov balansining katta davriy takchilligi bo'lgan xollarda o'z valyutalari devalvasiyasini amalga oshirishlari mumkin. Bu importning fizik xajmi ko'payishiga va okibatda mamlakatda xorijiy valyuta tushumining o'sishi hamda to'lov balans kamomadi tugatiladi.

### 17.5. To'lov balans taxlili.

To'lov balansini tuzish tamoyillariga ko'ra u doismo baoanslashgan bo'ladi. Manfiyyoki musbat koldik tushunchasi fakatgina to'lov balansining aloxida kismlariga ta'lukli. Shu bilan birga to'lov balansini koldigining milliy iqtisodiyotga ta'siri amaliyotda bir xil tavsiflanmaydi. Iqtisodiy siyosat maksadlaridan kelib chikib to'lov balansining musbat koldigi ham, manfiy koldigi ham ijobiy yoki salbiy deb baxolanishi mumkin.

To'lov balansini xolatiga baxo berishda savdo balansini koldigi, joriy operatsiyalar balansini koldigi, kapital xarakati va moliya balansini koldigi hamda rasmiy hisob kitoblar balansini koldigi aloxida taxlil etiladi.

Savdo balansini koldigi o'zgarishiga baxo berishda bu o'zgarishlar kaysi omillar ta'sirida ro'y berganligi e'tiborga olinadi. Masalan, manfiy koldik eksportning kiskarishi hisobiga ro'y bergan bo'lsa, bu xolat milliy iqtisodiyotning rakobatbardoshligi pasayganligidan dalolat berishi va negativ xodisa deb karalishi mumkin. Lekin bu xolat mamlakatga to'gridan-to'gri investitsiyalar okimi ko'payishi hisobiga importning o'sishi natijasida ro'y bergan bo'lsa milliy iqtisodiyotning zaiflashidan dalolat deb karalmaydi.

Joriy operatsiyalar hisobi balansini, odatda, to'lov balansining ma'lumot beruvchi koldigi deb karaladi. Chunki bu koldik bilan birga ichki iqtisodiy siyosatni cheklovchi tashki iqtisodiy omil hisoblanishi bilan birga mamlakatning moliyalashtirishga extiyojini belgilaydi. Joriy operatsiyalar hisobi balansining musbat koldigi mamlakat boshka davlatlarga nisbatan netto kreditor ekanligidan dalolat beradi, va aksincha manfiy koldigi ( ya'ni joriy operatsiyalar hisobi balansining takchilligi) mamlakat tovarlar va xizmatlarning netto-importi uchun to'lovlarni amalga oshirishga va transfert to'lovlarni moliyalashtirishga majbur bo'lgan sof karzdorga aylanganligini anglatadi. Amalda joriy to'lov balansining musbat koldigiga ega mamlakat milliy jamgarmalarning bir kismini kapitalni ichki jamgarihga yo'naltirish o'rniga mamlakat tashkarisiga investitsiyalaydi.

Kapital xarakati va moliya balansini koldigi joriy operatsiyalar balansini xolatining oynadagi aksi hisoblanadi, chunki real resurslar okimini ko'rsatadi. Shuningdek joriy operatsiyalar balansini xolati kisman «Sof xatolar va chetda koldirishlar» moddasiga to'gri keladi.

Rasmiy hisob kitoblar balansini koldigi to'lov balansini umumiy (yakuniy) koldigining kengrok tarkalgan nomlanishi bo'lib norezidentlarning mamlakatga nisbatan likvidli talablarning ko'payishi (kamayishi) yoki xorijiy likvidli aktivlardagi mamlakat rasmiy zaxiralarning ko'payishidan ( kamayishidan) dalolat beradi. Bu koldik «Zaxira aktivlari» moddasidan boshka barcha moddalarni kamrab oladi.

Kayd kiligangan valyuta kurslari sharoitida (1979 yilga kadar) rasmiy hisob kitoblar xolatiga katta ahamiyat berilar edi, chunki uning takchilligi mamlakatning boshka davlatlar oldidagi majburiyatlarining ortganligini (yoki zaxiralarning kamayganligini) anglatgani xolda valyuta kursining barkarorligiga taxdid solar edi. Suzib yuruvchi valyuta kursining kiritilishi bilan umumiy to'lov balansini tushunchasini yo'kka chikardi, rasmiy zaxiralar dinamikasi esa nafakat rasmiy hisob kitoblar koldigining okibati, balki to'lov balansining boshka bo'limlarida hisobga olingan okimlaridagi o'zgarishlarning sababchisi ham bo'lib koldi.

### **To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalari va usullari.**

To'lov balansini muvozanatini ta'minlash uchun joriy hisoblar va kapital xarakati koldiklari bir-birini aynan koplashi zarur bo'ladi. Markaziy Bank valyuta intervensiyasini amalga oshirish chorasini ko'rmasa, va rasmiy valyuta zaxiralari mikdorini o'zgartirmasa to'lov balansini hisoblarini valyuta kursining erkin tebranishi hisobiga o'zaro tartibga solish amalga oshiriladi.

Bunday sharoitda kapital okib kelishi sababli milliy valyutaning kimmatlashuvi, kapital chikib ketishi sababli esa uning arzonlashuvi ro'y beradi. Valyuta kursining erkin tebranishi to'lov balansining joriy va kapital hisoblarini avtomatik ravishda mutanosiblashtirish mexanizmi hisoblanadi.

Yerkin tebranuvchi valyuta kursi tarafdorlari ta'kidlashicha, to'lov balansining ortikchaligi yoki takchilligi bunday vaziyatlarda tez orada barham topadi. Valyuta kurslarining erkin xarakati to'lov balansining ortikchaligi yoki kamomadini yo'kotadi..

Yerkin tebranuvchi valyuta kurslari to'lov balansini tenglashtirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsada, kamchilikliklardan xoli emas. Chunonchi, bunday valyuta birinchidan, savdoning noanikligi va kiskarishiga, ikkinchidan, savdo sharoitining yomonlashishiga, uchinchidan, bekarorlikka va boshkalarga olib keladi.

Agar Markaziy Bank rasmiy valyuta zaxiralari vositasida chet el valyutasini sotib yoki sotib olib valyuta kursini erkin tebranishiga barham bersa valyuta kursining erkin tebranishi vositasida to'lov balansini tartibga solish zarurati yo'koladi.

Bunda to'lov balansi takchilligi Markaziy Bank rasmiy zaxiralarini kiskartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Bunday vaziyatda ichki bozorda chet el valyutasi taklifi oshadi. Kayd etilgan operatsiya eksportga xos bo'lib kreditda plyus belgisi bilan (Markaziy Bankda xorijiy valyuta zaxirasi kamayishiga karamasdan) hisobga olinadi. Ushbu tadbir natijasida ichki bozorda milliy valyuta taklifi kamayadi, uning almashinuv kursi nisbatan ko'tariladi va bu investisiyalar xajmiga hamda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'lov balansining aktiv-(musbat) koldigi esa Markaziy bankning rasmiy valyuta zaxiralari miqdorining ortishiga olib keladi. Bunda Markaziy bank valyuta zaxiralarini to'ldirish uchun chet el valyutasini sotib olishi natijasida ichki bozorda milliy valyuta taklifi nisbatan oshadi, uning almashinuv kursi kamayadi, bu xol esa iqtisodiyotga (investisiyalar xajmi va iqtisodiy o'sishga) ragbatlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan bunday operatsiyalar rasmiy rezervlar bilan bo'ladigan operatsiyalar deyiladi. Bu operatsiyalar natijasida to'lov balansi koldigi nolga tenglashishi kerak.

To'lov balansining aktiv koldigi yoki takchilligi mamlakat iqtisodiyoti xususiyatlariga karab turlicha baxolanishi mumkin.

Valyutasi xalkaro hisob-kitoblarda, hamda boshka mamlakatlar zaxira valyutasi sifatida foydalaniladigan mamlakatlar uchun to'lov balansi takchil bo'lishi tabiiy xolhisoblanadi.

Milliy valyutasi jaxon iqtisodiyotida zaxira valyutasi hisoblanmaydigan mamlakatlar Markaziy Banklaridan rasmiy valyuta zaxirasi cheklanganligi tufayli to'lov balansining uzok muddatli takchilligi bu rezervlarning sarflab bo'linishiga olib keladi. Bunday xollarda to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinadi. Mamlakat savdo siyosati va valyuta almashinuv kursini o'zgartirishi choralarini ko'llab chet ellardagi o'z xarajatlarini kamaytiradi, yoki eksportdan o'z daromadlarini oshiradi.

Bunday tartibga solish natijasida baxolar umumiy darajasining oshishi okibatida axoli turmush darajasining pasayishi, milliy valyutaning kadsrizlanishi, iqtisodiyotning ayrim tarmoklarida bandlilikning pasayishi ro'y berishi mumkin.

Valyuta rezervlari sarflab bo'lganligi, ilgari olingan chet el kreditlarini kaytarilish grafiklari buzilganligi tufayli bunday kreditlarni yana olish imkoniyatlari yo'kka chikkanligi sababli mamlakat to'lov balansi takchilligining uzok vakt davom etishi to'lov balansi inkirozi deyiladi.

To'lov balansi inkirozini xal etishning yagona yo'li makroiqtisodiy tartibga solish hisoblanadi.

O'tish davri iqtisodiyotida xorijiy valyutaga spekulyativ talab oshishi Markaziy Bankni kiyin axvolga solib ko'yadi. Chunki rasmiy valyuta zaxiralari bir vaktning o'zida ham to'lov balansi takchilligini ham ichki spekulyativ talabni kondirish uchun etarli bo'lmasligi mumkin.

Valyuta almashinuv kursini tartibga solish bu vaziyatdan chikishning yagona yo'lidir.

Qisqa istikbolda to'lov balansi koldigi jamgarish va investisiyalar xajmlarini belgilovchi omillar (masalan byudjet solik siyosati, foiz stavkalari) ta'sirida o'zgarishi mumkin.

Agar mamlakatda ragbatlantiruvchi fiskal siyosat yurgizilsa bu xol milliy jamgarmalarning pasayishiga olib keladi. Bu o'z navbatida joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha takchillikka, kapital xarakat hisobi bo'yicha musbat koldikka olib keladi.

Cheklovchi fiskal siyosat milliy jamgarmalar xajmlarini oshiradi, bu o'z navbatida kapital xarakati hisobi bo'yicha takchillikka, joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha musbat koldikka olib keladi.

Jaxon foiz stavkalarining oshishi kapital xarakati hisobi bo'yicha takchillikka, joriy operasiyalar hisobi bo'yicha musbat koldikka erishishga olib keladi. Jaxon foiz stavkalarining pasayishi esa aks natijalarga olib keladi.

### **Qiskacha xulosalar**

To'lovbalansi mamlakatning dunyoning boshkadavlatlar bilan bo'lgan savd va moliyaviy operasiyalarini aks ettirilgan xujjat. U ikki kismdan, joriy operasiyalar va kapital xarakati balansidan tashkil topgan.

Savd balansini mamlakatning joriy tashkiloti operasiyalarini bo'yicha tushumlar va xarajatlarni aks ettiradi.

Mamlakat eksporti va importi bilan ko'pincha joriy operasiyalar bilan musbat koldik bo'ladi.

Joriy operasiyalar bilan savdning o'zgarishlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kapital xarakati bilan aktivlarni sotish va sotib olish bo'yicha barcha xalkaro bitimlarni xarakterlaydi. Aktivlarni sotib olish xorijiy valyutaning chiqib ketishini, sotishni aks ettiradi.

Harkanday xalkaro bitimlar to'lov balansida ikki bir-birini muvozanatlovchi yozuv ko'rishidagi detalni uchun ham joriy operasiyalar bilan savd kapital xarakati bilan koldiklari o'zaro teng bo'ladi.

To'lov balansini takchilligini rasmiy xarakterlarning kiskariishi hisobiga ko'plandirgan aktiv va saldosini rasmiy xarakterlarning o'sishiga olib keladi.

Kaydetilmagan valyuta kursining sharoitidagi to'lov balansini valyuta kursining o'zgarishi hisobiga muvozanatlashadi.

Milliy valyuta siyosati jaxoniqtisodiy o'tkazir valyuta siyosati bilan bogliq mamlakatlar Markaziy banklaridan rasmiy valyuta xarakterlari cheklanganligi tufayli to'lov balansining uzok muddatli takchilligini urezervlarning sarflab olinishiga olib keladi.

Bunday xollarda to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinadi.

Kaydetilgan valyuta kursini tartibga solish uchun tashkiloti savd siyosati, pul kredit va fiskal siyosat vositalariidan foydalaniladi.

### **Nazorat va muxokama chun savollar**

1. Mamlakat to'lov balansini cheklaydigan borat va ulardan animalar kaydetiladi?
2. to'lov balansini tuzishda ikki bori yozuv prinsipi nima anglatadi?
3. Joriy operasiyalar bilan savd aks ettiriladigan operasiyalar nima abbering.
4. Kapital xarakati bilan savdning muvofiqligini tushuntiribbering.
5. to'lov balansini tarkibiy kislari o'rtasidagi bogliqlikni tushuntiribbering.
6. to'lov balansini takchilligini va inkirozi bir xil tushunchalar mi?
7. erkintevranchi valyuta kursini tartibga solish uchun to'lov balansini kayy o'sindab qarorlashadi?
8. to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish uchun degandani ma'nini tushunasiz? Bundakanday vositalardan foydalaniladi?
9. to'lov balansini taxlil makroiqtisodiy jarayonlar to'g'risida qanday ma'lumotlar olishimni ko'rsatibberadi?

### **Asosiy adabiyotlar**

Xorijda kreditlash va investisiyalashda, chet ellik ishchi kuchi mexnatiga, shuningdek, mamlakat valyuta xarakterlarini yaratishda ko'riladi.

Xalkaro valyuta yoki xalkaro to'lov-xisob va kreditlash vositalariga javob berishi kerak bo'lgan talab ularning konvertirlashuvi xisoblanadi. **Valyuta konvertirlashuvi** deganda uni boshka xorijiy valyutalarga almashish kobiligi tushiniladi. Xozirgi paytda ular erkin konvertirlanadigan, kisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalarga ajratiladi.

**Yerkin konvertirlanadigan valyuta** – bu, amaldagi kurs bo'yicha xar kandy boshka xorijiy valyuta erkin va cheklanmagan mikdorda ayirboshlanadigan valyutadir. Bunga misol kilib AKSh, evropa xamjamiyatiga a'zo mamlakatlar, Yaponiyalar valyutalarini kiritish mumkin.

**Kisman konvertirlanadigan valyuta** – bu, fakat ba'zi xorijiy valyutalarga almashtiriladigan va xalkaro to'lov oborotini kisman kamrab oladigan milliy valyutadir.

**Konvertirlanmaydigan valyuta** – bu, fakatgina ichki to'lovlarga xizmat kiladigan va xorijiy valyutaga ayirboshlanmaydigan milliy valyutadir.

Konvertirlashni **ichki va tashki** konvertirlashga xam ajratish mumkin. Ichki konvertirlash rezidentlarining mamlakat ichkarisida xorijiy valyutani sotib olishi, uni saklab turishi va u bilan ayrim operasialarni olib borishini imkoniyatini aks ettiradi. Tashki konvertirlashda xorijda to'lovlarni amalga oshirishga va moliyaviy aktivlarni ushlab turishga ruxsat etiladi. Valyutalarni konvertirlash ko'pgina mamlakatlar olib borayotgan iktisodiy siyosatlarning muxim maksadi xisoblanadi.

### **Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari**

Bozordagi talab va taklif ta'siri natijasida vakti-vakti bilan valyuta kurslari o'zgarib turadi. Davlat valyuta kurslarini barkororlashtirish uchun valyuta bozorining amal kilishiga bevosita yoki bilvosita aralashishi zarur. Buning bir kator usullari mavjud:

1. **Zaxiralardan foydalanish.** Valyuta kursini mustaxkamlashning ko'prok ko'llaniladigan usuli - rasmiy zaxiralalar bilan bozorda manipulyasiya kilish xisoblanadi. O'z-o'zidan anikki, valyuta zaxiralari aloxida mamlakatlar ixtiyoridagi chet mamlakatlar valyutalarining zaxirasidir (Masalan, AKSh dollari, eVRO va x.k.).

2. **Savdo siyosati.** Valyuta bozoriga ta'sir ko'rsatishning boshka tadbirlariga savdo va moliyaviy okimlar ustidan to'gridan-to'gri nazorat kilishni kiritish mumkin. Masalan, AKSh dollarining etishmasligi sharoitida valyuta kursini tegishli darajada importni cheklash xisobiga ushlab turish mumkin. Xususan import xajmi boj yoki import kvotalarini kiritish bilan kiskarishi mumkin. Boshka tomondan mamlakat xukumati eksport uchun milliy ishlab chikaruvchilarga subsidiya berib, shu orkali xorijiy valyuta taklifini ko'paytirishi mumkin. Bu tadbirlardan foydalanishda vujudga keladigan asosiy muammo shundan iboratki, u jaxon savdosi xajmini kiskartiradi, uning tarkibini va savdo alokalarini o'zgartirib yuboradi, iktisodiy maksadga muvofiklikning buzilishiga xissasini ko'shadi. Buning okibatlarini xisobga olmaslik mumkin emas.

3. **Valyuta nazorati.** Boshka mukobil variant valyuta nazorati xisoblanadi. Valyuta nazorati sharoitida xukumat milliy eksportyorlar olgan barcha tegishli chet el valyutalarini davlatga sotish talabi bilan ularning etishmasligi muammosini xal kilishi mumkin. Keyin, xukumat o'z navbatida chet el valyutasining bu zaxirasini turli milliy importyorlar o'rtasida taksimlaydi. Shu yo'l bilan xukumat milliy importni, milliy eksport xisobidan olingan chet el valyutasi mikdoriga cheklaydi.

Valyuta nazorati tizimi bir kator kamchiliklarga ega. Birinchidan, savdo cheklashlari (boj, kvota, eksportga subsidiya) kabi valyuta nazorati nisbiy ustunlik tamoiliga asoslangan xalkaro savdoning tarkib topgan alokalarini buzadi. Ikkinchidan, etarli bo'lmagan valyuta resurslari ustidan valyuta nazorati jarayoni, so'zsiz, aloxida importyorlarni kamsitilishi bilan boglik. Uchinchidan, nazorat tadbirlari iste'molchining tanlash erkinligiga tajovuz kilish xisoblanadi.

4. **Ichki makroiktisodiy tartibga solish.** Valyuta kursi barkarorligini ushlab turishning oxirgi vositasi ichki solik yoki pul siyosatidan shunday foydalanish xisoblanadiki, bunda tegishli chet el valyutasining etishmasligi bartaraf kilinadi. Masalan, cheklovchi solik va pul kredit siyosati tadbirlari mamlakat milliy daromadini boshka bir

davlat milliy daromadiga nisbatan pasaytiradi. Chunki, import miqyosi milliy daromad darajasiga to'gridan-to'gri bog'lik bo'lib, bu o'sha boshka davlat buyumlariga va demak, xorijiy valyutaga talabning cheklanishiga olib keladi.


### Valyuta kursi va uni belgilovchi omillar

Barcha xalkaro bitimlar valyutalarni ayirboshlash orkali olib borilishi tufayli xar kanday ayirboshlashda bo'lgani kabi valyuta baxosini yoki valyuta kursini aniklash zaruriyati paydo bo'ladi. Shunday kilib, **valyuta kursi – bu, bir mamlakat pul birligining boshka mamlakatlar pul birligida ifodalangan baxosidir**. Valyuta kursini o'rnatish **kotirovkalash** deb ataladi. U to'gri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valyuta birligining baxosi milliy valyutada ko'rsatilsa, bunga to'gri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 1 AKSh dollari 975 so'mga, 1 Rossiya rubli 32 so'mga teng va xakozo. Teskari kotirovkalashda milliy valyutaning bir birligiga to'gri keladigan xorijiy valyutaning mikdori o'rnatiladi. Masalan, 1 o'zbek so'mi 0,001025 AKSh dollariga to'gri keladi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda xam to'gri kotirovkalash kabul kilingan. Valyuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valyutaning baxosi yoki kursi aniklanadi. O'zbek so'mining kursi O'zbekiston valyuta birjasida o'rnatiladi, uning ishtirokchilari valyuta operasiyalarini olib borish xukukiga ega bo'lgan banklar xisoblanadi. Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valyuta kurslarini o'rnatish jarayonida bozor kuchlarining ta'sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta'sir kuchiga bog'lik xolda valyuta kurslarini kabul kilishning bir-biridan fark kiluvchi ikki varianti mavjud.

1. Talab va taklifga asosan aniklanadigan egiluvchan yoki erkin suzib yuruvchi valyuta kursi tizimi.

2. Davlat aralashuvi asosida aniklanadigan kat'iy belgilangan valyuta kursi tizimi.

Yerkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif asosida aniklanadi. Masalan, bir o'zbek so'mining AKSh dollariga almashishini karab chikamiz. Milliy valyuta kursining pasayishi natijasida dollarga talab kamayadi va taklif esa oshadi (32-chizma).



### 32-chizma. Xorijiy valyuta bozori

Dollarga bo'lgan talabning kamayishi D to'gri chizigida berilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, agarda dollar o'zbekistonliklar uchun arzon bo'lsa, amerika tovarlari xam ular uchun arzon bo'ladi va bu, o'z navbatida, ularning amerika tovarlariga bo'lgan talabini oshiradi.

Dollarning taklifi (S) kamaysa, so'mda belgilangan dollarning qiymati oshadi (ya'ni, dollarda belgilangan so'mning qiymati pasayadi). Bunday vaziyatlarda amerikaliklar ko'prok o'zbek tovarlarini sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, so'mning dollarga nisbatan qiymati pasaysa, u o'z navbatida o'zbek tovarlarining narxi xam pasayganini bildiradi va okibatda ko'prok o'zbek tovarlarini sotib olish imkoni paydo bo'ladi.

O'zbek tovarlarini sotib olish jarayonida ular AKSh dollarini valyuta bozoriga olib chikadi, chunki, o'zbek tovarlarini sotib olish uchun dollarni so'mga almashtirishadi. Dollarga bo'lgan talab va taklifning kesishgan nuktasi dollarning so'mdagi qiymatini bildiradi.

Agarda, dollarning so'mdagi qiymati oshsa, so'm qiymatining pasayganligini yoki kadsizlanganligini ko'rsatadi. Aksincha, agarda dollarning so'mdagi qiymati pasaysa, so'm qiymatining oshganligini yoki so'mning kimmatlashganligini ko'rsatadi. Bir birlik xorijiy valyutani sotib olish uchun kam mikdorda milliy valyuta sarf qilish milliy valyutaning kimmatlashuvini bildiradi. Agarda, dollarga nisbatan so'm kadsizlansa, dollar so'mga nisbatan kimmatlashadi.

**Kayd etilgan valyuta kursi – bu, xorijiy valyutada ifodalangan, davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining baxosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi bevositata'sir kilmaydi.**

Kayd kilingan valyuta kursi tizimi tarafdorlari ta'kidlaydilarki, undan foydalanish xalkaro savdo va moliya bilan boglik bo'lgan taxlika va noanikliki kamaytiradi. Kayd kilingan valyuta kurslarini ko'llash o'zaro foydali savdo va moliyaviy operatsiyalar xajmini kengaytirishga olib keladi. Ammo, kayd kilingan valyuta kurslari tizimining xayotga layokatligi o'zaro alokalar jarayondagi ikki sharoitga boglik:

- zaxiralarning mavjudligi;
- o'z xajmi bo'yicha sezilarsiz kamyoblik yoki to'lov balansi aktivlarining tasodifiy vujudga kelishi. Katta va doimiy kamyobliklar mamlakat zaxiralarini yo'kka chikarishi mumkin.

Xulosa kilib aytganda, valyuta kurslarining talab va taklif ta'siri ostida shakllanish darajasi, o'z-o'zicha kurslar o'rtasidagi nisbatlarga ta'sir etuvchi real jarayonlarni aniklab bera olmaydi. Chet el valyutalariga talab va taklifga, demak, valyuta kurslariga mamlakatdagi xam ichki va xam tashki iktisodiy munosabatlar majmui bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta kurslarining o'zgarishiga bir kator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni kiskacha karab chikamiz:

1. Iste'molchilar didining boshka mamlakat buyumlariga nisbatan o'zgarishi.
2. Turlimamlakatlardadaromadlardagi nisbiy o'zgarishlar..
3. Baxodagi nisbiy o'zgarishlar.
4. Nisbiy real foiz stavkalari. Faraz kilamiz, AKSh inflyasiyani kuvib o'tish maksadida « kimmat pul» siyosatini amalga oshira boshlaydi. Natijada, real foiz stavkalari (inflyasiya sur'atini xisobga olib o'zgartirilgan (korrektirovka kilingan) foiz stavkalari) AKShda boshka mamlakatlar, masalan, Buyuk Britaniyaga karaganda ko'tariladi. Britaniyalik jismoniy shaxs va firmalar ishonch xosil kiladiki, AKSh moliyaviy vositalarni ko'yish uchun juda jozibador va kulay joyga aylanadi. Amerika moliyaviy aktivlariga talabning bu ko'payishi Angliya funti taklifining kengayganligi va shu sababli dollar qiymati o'sganligini bildiradi.

5. Spekulyasiya.

Dollar kursi pasayishi, funt kursi esa, aksincha ko'tarilishito'grisidagiprognozlarnatijasidadollarni ushlab turuvchilar ularni funtga aylantirishga xarakat kiladi va shu bilan funtga bo'lgan talabni oshiradi. Bu almashish, dollar kursining pasayishini va funt kursining oshishini keltirib chikaradi.

O'tish davri iktisodiyotida xorijiy valyutaga spekulyativ talab oshishi Markaziy Banklarni kiyin axvolga solib ko'yadi. Chunki rasmiy valyuta zaxiralari bir vaktning o'zida xam to'lov balansi takchilligini xam ichki spekulyativ talabni kondirish uchun etarli bo'lmasligi mumkin.

Valyuta almashinuv kursini tartibga solish bu vaziyatdan chikishning yagona yo'lidir.

Nominal va real valyuta kurslari o'zaro farqlanadi. Nominal valyuta kursi valyutalarning almashinuv kursi deyiladi. Yukorida biz aynan nominal valyuta kursi xakida fikr yuritdik.

Real valyuta kursi ikki mamlakatda ishlab chikarilgan tovarlarning nisbiy baxosidir.

Real valyuta kursi bir mamlakat tovarlari boshka mamlakat tovarlariga almashishi mumkin bo'lgan nisbatni ko'rsatadi, shu tufayli u **savdo sharoiti** xam deb yuritiladi.

Nominal va real valyuta kurslari o'rtasidagi nisbat kuyidagi ko'rinishga ega.

**Pd**

$er = en \frac{Pt}{Rd}$

**Pt**

Bu erda : er – real valyuta kursi; en - nominal valyuta kursi ;

Rd – milliy valyutada ko'rsatilgan ichki baxolar darajasi (indeksi);

Rt – xorijiy valyutada ko'rsatilgan chet eldagi baxolar darajasi (indeksi).

Xar ikkala mamlakatdagi baxolar darajasi (indeksi) bir xil bazis yilga nisbatan berilgan. Real valyuta kursining ko'tarilishi (pasayishi) bu mamlakat tovarlari rakobatbardoshligining pasayganligi (oshganligi) to'grisida guvoxlik beradi.

Pul nafakat muomala yoki to'lov vositasi, balki jamgarish vositasi xam xisoblanadi. Iflyasiya sharoitida jamgarish vositasi sifatida milliy valyutadan emas, balki xorijiy valyutadan foydalaniladi.

Valyuta bozori, depozitlar (ko'yilmalar) va kimmatbaxo kogoslar bozori bilan bevosita alokaga ega. Bunda asosan foiz me'yorlari asosiy axamiyatga ega. Agarda, foiz me'yorlari baxolar o'sishini koplasa, mijozlar esa moliya institutlariga ishonch xosil kilishsa, jamgarma bozori valyuta bozoriga asosiy rakobatchi bo'lishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlarning statistik kuzatishlaridan shu ma'lum bo'lganki, depozitlar va kimmatbaxo kogoslar bozoridagi operasiyalar o'sishi bilan, valyuta bozorlariga iste'molchilar tomonidan bo'ladigan ta'sir o'z-o'zidan kamayadi.

Sarmoyachilar kandy kilib bo'lsa xam o'zlarining vaktincha bo'sh turgan resurslaridan unumli foydalanish va shuningdek, nafakat o'z resurslaridan, balki xorij aktivlaridan xam foydalanish yo'llarini izlashadi. Chunki, jaxon moliya bozorining asosiy kismini kapital aktivlar tashkil etadi.

Agarda, depozit stavkalari ohsa, pul okimi valyuta kursining oshishiga olib keladi. Xorijiy sarmoyadorlar uchun, ya'ni, ushbu mamlakat depozitiga o'z sarmoyalarini ko'yishni xoxlovchilar uchun ularning valyutalari foiz stavkalaridan keladigan foydadan ko'ra kimmatlirok bo'ladi.

### **Xarid kobilyati pariteti**

Bu savolda nominal kurslarga xarid kobilyati pariteti kandy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rib chikamiz.

Xarid kobilyati pariteti konsepsiyasi narxlarning tenglashuvi nazariyasiga asoslanadi. Ya'ni, bir xil tovar turli joylarda xar xil narxlarda sotilishi uzok davom etmaydi. Agarda, AKSh dollariga mamlakat ichida chet mamlakatlarga nisbatan ko'prok maxsulot sotib olish mumkin bo'lsa, u xolda mamlakat ichkarisida sotib olingan maxsulotni chetga sotish orkali foyda olish mumkin. Okibatda foyda olish maksadida xorij tovar olib chikashko'payadivabaxolartentlashishigasabab bo'ladi.

Xaridkobilyatiparitetikonsepsiyasigako'ravaljutakursidoimoturlimamlakatlardabaxol ardarajasiningo'zgarishinatijasidakelibchikadiganfarknikoplashuchunzarurbo'lgandarajadao'zgaradi. Ya'ni:

**Pd**

$r = \frac{Pt}{Rd}$

**Pt**

Buerda: r — xorijiyvalyutaningmilliyvalyutadagibaxosi;

Pd — ichki baxolar darajasi;Pt — chet eldagi baxolar darajasi.

. Valyuta kurslarining oshishi mamlakatlar eksport imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Valyuta kurslarining bekarorligi tashki iktisodiy alokalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning tebranishi xalkaro bitimlarda noaniklik va taxlika darajasini ko'paytiradi. Shu sababli valyuta kursi xam mamlakat ichida va xalkaro munosabatlarda tartibga solishning muxim obyeksi xisoblanadi. Davlat bevosita tartibga solish vositasi sifatida valyuta intervensiyasi va diskont siyosatidan foydalanish mumkin.

Diskont siyosatida bank xisob stavkasini oshirib yoki tushirib chet el kapitallari kirishi yoki chikib ketishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tartibga solishning ko'prok universal usuli valyuta intervensiyasi xisoblanadi. Bunda Markaziy banklar taklifi etarli bo'lmagan, kursi esa yukori bo'lgan chet el valyutalarini sotadi, ularni taklif ortikcha va kursi past bo'lganda sotib oladi. Bu bilan talab va taklifni tenglashtirib, milliy valyuta kursi tebranish chegarasini cheklaydi.


Valyutaintervensiyasiniko'llashzaxiravalvyutafondiningmikdoribilancheklanadi, shusabablivalyutalarnisotish, albatta, ularnisotibolishbilanalmashtiribturilishilozim.

### 18.5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kurslariga ta'siri

Real valyuta kurslari jamgarma va sarmoyalar o'rtasidagi farkni ko'rsatuvchi vertikal to'g'ri chizik va sof eksport mikdorini ko'rsatuvchi, o'ngdan pastga egilgan egri chizik kesishgan nuktada tenglikka erishadi (33-chizma). Ushbu nuktada xorijga kredit berish sifatida ko'rsatilgan milliy valyuta taklifi, xorijliklarning ushbu mamlakatdan sof eksportni sotib olishi uchun zarur bo'ladigan milliy valyuta talabi bilan kesishadi. Bu shuni bildiradiki, real valyuta kursi kapital bilan bo'ladigan operasiyalar bo'yicha milliy valyuta taklifini joriy operasiyalar uchun unga bo'lgan talabni tenglashtiradi.

Davlat xarajatlarining oshishi (yoki soliklarning kamayishi) milliy jamgarmalarni kamaytiradi va (S-I) egri chizik chapga suriladi (34-chizma). Bu siljishlar xorijiy investisiyalar uchun milliy valyuta taklifining kamayishini ko'rsatadi.

e




33- chizma. Real almashtirish kursidagi muvozanat

Valyuta taklifining kiskarishi uning real almashtirish kursini oshiradi. Natijada, milliy maxsulotlar xorijliklarnikiga nisbatan kimmatlashadi. Bu esa, o'z navbatida, eksportning kiskarishiga va importning oshishiga olib keladi. Okibatda joriy operasiyalar xisobida takchillik paydo bo'ladi. Agarda, soliklarning kamayishi investisiyalarning oshishiga olib kelsa, milliy jamgarmalar xajmi o'zgarmasa xam (S-I) egri chizigi yana chapga siljiydi.

e

S2-I

S1-I



Sof eksport

$X_{n2}$

$X_{n1}$

$X_n$

### 34-chizma. Valyuta taklifidagi o'zgarishlarning real almashtirish kursiga ta'siri

Investision solik kreditlari ushbu mamlakatga investisiyalar kiritishni xorijiy sarmoyadorlar uchun foydali bo'lishiga olib keladi. Bu esa muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va to'lov balansida takchillikni keltirib chikaradi.

Chet mamlakatlardagi ragbatlantiruvchi byudjet-solik siyosati bu mamlakatlardagi jamgarmalar darajasini kamayishiga olib keladi. Bu esa xalkaro foiz stavkasini oshiradi va kichik ochik iktisodiyotdagi investisiyalar darajasini kamaytiradi.

Natijada muvozanatli real valyuta kursi oshadi, milliy maxsulotlar kimmatlashadi va sof eksport kamayadi.

Shunday kilib, mamlakat ichki bozorini chet el rakobatchilaridan ximoya kilish maksadida olib boriladigan proteksionistik savdo siyosati joriy operasiyalar xisobi va kapital xarakati xisobiga ta'sir kilmaydi. Ammo, u muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va tashki savdo mikdorini kamaytiradi. Sof eksport o'zgarmagan bo'lsa xam B nuqtadagi eksport va import xajmi A nuqtadagi eksport va import xajmidan kam bo'ladi. Importga cheklashlarni joriy kilish ichki narxlar darajasi ( $P_d$ )ning oshishiga olib keladi.

Shuning uchun xam uzok davrda nominal valyuta kursi (Yen) narxlar oshishiga teng tarzda kamayadi. Natijada, o'sgan muvozanatli real valyuta kursi  $e_2$  nuqtada barkororlashadi, ya'ni sof eksport kamayishi ortidan  $e_1$  nuqtaga kadar pasaymaydi. Baxolar darajasining ko'tarilishiga javoban nominal valyuta kursining pasayishi sotib olish kobilyati paritetini tiklaydi.

### Kiskacha xulosalar

Jaxon valyuta tizimi - xalkaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat kilishga va ularning samarali rivojlanashini ta'minlashga karatilgan mamlakatlar o'rtasidagi valyuta munosabatlarining yigindisidir.

Valyuta konvertirlashuvi deganda uni boshka xorijiy valyutalarga almashish kobilyati tushuniladi. erkin konvertirlanadigan valyuta– bu, amaldagi kurs bo'yicha xar kandy boshka xorijiy valyuta erkin va cheklanmagan mikdorda ayirboshlanadigan valyutadir. Bunga misol kilib AKSh, evropa xamjamiyatiga a'zo mamlakatlar, Yaponiyalar valyutalarini kiritish mumkin.

Davlat valyuta kurslarini barkororlashtirish uchun valyuta bozoriga ta'sir kilishning rasmiy zaxiralarni tartibga solish, savdo siyosati, valyuta nazorati va ichki makroiqtisodiy tartiga solishkabiussullaridanfoydalanadi..

Valyuta kursi mamlakat pul birligining boshka mamlakatlar pul birligida ifodalangan baxosidir.

Yerkin tebranuvchi valyuta kursi talab va taklif asosida aniklanadi.

Kayd etilgan valyuta kursi – xorijiy valyutada ifodalangan, davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining baxosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi ta'sir kilmaydi.

Xaridkobilyatiparitetikonsepsiyasigako'ra valyutakursidoimoturlimamlakatlardabaxol ardarajasiningo'zgarishinatijasidakelibchikadiganfarknikoplashuchunzarurbo'lgandarajadao'zgaradi

Valyutataklifiningkiskarishiuningrealalmashtirishkursinioshiradi.

Importgatarifyokikvotalarjoriykilishsiyosatisofeksportningoshishigaolibkeladi .  
Natijadamuvozanatlirealvalyutakursioshadi,  
milliymaxsulotlarkimmatlashadivasofeksportkamayadi.

Mamlakatchikibozorinichetelrakobatchilaridanximoyakilishmaksadidaolibboriladigan proteksionistikumuvozanatlirealvalyutakursinioshiradivatashkisavdomikdorinikamaytiradi.  
Valyutakurslariningo'zgarishiga,  
shuningdekbirkatortashkivaichkiomillarvaularo'rtasidaginibatta'sirko'rsatadi.

### **Nazoratvamu xokamauchunsavollar**

1. Valyutatizimini moxiyatini va uning tarkibi ykismlarini aytib bering
2. Valyuta bozori davlattomonidan kaysi usullar bilan tartibga solib turiladi?
3. Ichki vatashki konvertirlashtirish hunchalariga izox bering.
4. Valyutakursini mavaunika nday omillar belgilaydi?
5. Foiz stavkasi va valyutakursio'rtasida kanda y bog'lig'lik bor?
6. Nominal va real valyutakurslariga izox bering.
7. Xaridkobilyatipariteti atamasining moxiyatini madaniborat?
8. Real valyutakursi makroi tsi odiysi yosatta'sirida kay tarzda o'zgartiriladi va uning milliy iktisodi yotgata'sirika nday?
9. Proteksionizm siyosatining valyuta kursiga ta'sirini kanda y baxolaysiz?